

# SHARQ ALLOMALARINING TA'LIM-TARBIYA XUSUSIDAGI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK QARASHLARI.

Xolbekov Abdusattor Maxammatovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mamlakatimizda yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar va sharq allomalari asarlarida yosh avlodning ta'lim-tarbiya borasidagi qarashlari bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Internet, ta'lim-tarbiya, anjuman, ma'naviyat.

**Abstract.** This article describes the opportunities created for young people in our country and the views of the young generation on education in the works of Eastern scholars.

**Key words:** Internet, education, conference, spirituality.

Hozirgi davrda jahon miqyosida kechayotgan globallashuv jarayonlari XX asrning oxiri XXI asrning boshlarida butun insoniyat, yer yuzidagi barcha xalqlar va millatlar taraqqiyoti uchun, ayniqsa, mustaqil hayotga kirib kelayotgan yosh avlod uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlar yaratib berdi. Ayniqsa, fan va texnikaning ilg'or yutuqlari zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, internet tarmog'i turli davlatlar va mintaqalar orasidagi chegaralarni ochib berib, o'zaro hamkorlik va integratsiya rivojiga katta hissa qo'shayotganiga bugun barchamiz guvoh bo'lmoqdamiz.

Globallashuv va o'zgarib borayotgan bir davrda mamlakatimizda yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'g'il-qizlarning zamonaviy bilim olishi, yuksak ma'naviyatli bo'lib ulg'ayishi uchun zarur sharoit yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. Davlatimiz rahbari boshchiligida hududlarda o'tkazilayotgan yig'ilish muhokamalarining dolzarb mavzularidan biri bu, yoshlar

masalasiga alohida katta e'tibor qaratilayotganligini alohida g'urur va faxr bilan tilga olishimiz zarur.

Davlatimiz rahbari yoshlarimizga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish masalalariga davlat darajasidagi masala sifatida alohida e'tibor qaratmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 15-iyun kuni Toshkentda bo'lib o'tgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash - davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqida yosh avlod tarbiyasi haqida alohida to'xtalib o'tdi: "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala — bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim - yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin, lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan", - deya ta'kidladi Prezidentimiz. Turli ziddiyatlar kuchayib borayotgan bir davrda yoshlarimizning ma'naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish har qachongidan ham dolzarb masala ekanligini zamonning o'zi ko'rsatib turibdi. Fikrimizning misoli sifatida Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlarini bayon qilamiz.

Forobiy inson kamolotida ta'lim-tarbiyaning muhimligini ta'kidlab: "Munosib inson bo'lish uchun odamda ikki imkoniyat: ta'lim va tarbiya olish imkoniyati bor. Ta'lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi, tarbiya esa kishilar bilan muloqotda axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yo'ldir..." deydi.

Abu Ali ibn Sino etika va axloqiy tarbiya masalalarini falsafiy- pedagogik asosda yoritib berishga harakat qilgan. U, ayniqsa, oila tarbiyasida ota-onaning sha'niga alohida to'xtalib "Bola tug'ilgach, avvalo, ota unga yaxshi nom qo'yishi, so'ngra esa

uni yaxshilab tarbiya qilishi kerak... Agar oilada tarbiyaning yaxshi usullaridan foydalanilsa, oila baxtli bo‘ladi“ degan fikrni ilgari suradi.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida inson kamoloti masalasi markaziy masala bo‘lib hisoblanadi. Mazkur asarda insonning jamiyat va hayotda tutgan o‘rni, burch va vazifalari haqidagi muammolar o‘ziga xos bir tarzda bayon etiladi. Mutafakkir kitobning an’anaviy boshlanmasidan keyinroq insonning haqiqiy baxti bilimda ekanini bayon etadi. Yana ilm-zakovatning ahamiyati haqida qator boblarda ham fikr yuritish bilan birga unga alohida boblar ham bag‘ishlangan. Lekin olim faqat ilm-ma’rifatning ahamiyatini ko‘rsatibgina qolmaydi, u bilim va zakovatning amaliyotdagi o‘rnini ham yoritadi. Yusuf Xos Hojib olimlarni hurmat etish kerakligini ta’kidlab, ilm ahlini qadrlasa, ilmsizlarni johil kishilar deb biladi. U bilimlik va bilimsizlikning oqibatlari haqida ham fikr yuritadi. Inson bilimsiz, nodon, johil bo‘lsa, yaramas ishlar qilishi, aksincha, bilimli, dono, zukko bo‘lsa, ezgu ishlarni ro‘yobga chiqarishini ta’riflash bilan kishilarni tinmay ilm olishga undaydi.

XI asrning 82-83 yillarida G‘arbiy Eron podshohining nabirasi Kaykovus ibn Iskandar o‘z o‘g‘li Gilonshohga bag‘ishlab “Nasihatnoma”sini yaratadi va o‘sha davr an’anasiga ko‘ra, uni bobosi podshoh Shamsul ma’aliy Qobus sharafiga “Qobusnoma” deb ataydi. Kaykovus yirik davlat arbobi sifatida o‘g‘li Gilonshohga podshohlik, vazirlik kabi ulug‘ martabadan tortib, dehqonchilik ishlari-yu dehqon odobigacha bo‘lgan umuminsoniy masalalar haqida ta’lim beradi. Asarning buyuk ahamiyati shundaki, hamma zamon, hamma ijtimoiy-siyosiy tuzumda ham yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalashda “Qobusnoma” o‘z qiymatini aslo yo‘qotmaydi.

Alisher Navoiy inson kamolotida ilmning o‘rnini muhim deb biladi. U ilmli insonni, xalqni nodonlik, jaholatdan qutqaruvchi omil sifatida ta’riflaydi. Ilm olishni insoniy burch deb biladi. U ilmda barcha fanlarni o‘rganishni targ‘ib etadi. Navoiy ilm-fanni yuksaltirish uchun “Ixlosiya” madrasasini tashkil etdi, uning yonidan maktab ochib, o‘z vakfidan mablag‘ ajratdi. Madrasada qattiq intizomga amal qilinishini nazorat qildi. Adib ustoz-murabbiylarga ham katta talablar qo‘yadi, ularni avvalo o‘zlari bilimli va tarbiyali bo‘lishlari lozim deydi. Shu bilan birga ustozlarning mehnatini juda qadrlaydi:

Haq yo'linda kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,

Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Alisher Navoiy o'zining badiiy asarlarida komil inson obrazlarini yaratib, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi fikrlarini ifodalagan bo'lsa, ta'limiy-axloqiy asarlarida esa komil insonni shakllantirishning mazmuni, yo'llari, usullarini bayon etdi. Yuqorida bayon qilingan buyuk allomalarning ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlari, bizning hayotimizda har doim nechog'li zarur va ehtiyojga aylangan ma'naviy boylik deb atasak mubolag'a bo'lmaydi. Bu boylikni biz umumiy qilib "Ma'naviyat" deb ataymiz.

Ma'naviyat tushunchasini yanada kengroq anglashimiz uchun, o'zbek xalqining sevikli adibi O'tkir Hoshimovning "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asaridagi quyidagi jummalarni esga olishimiz kifoya: "Odamzot nima uchun kitob o'qiyotib, suyuqli qahramoni o'lib qolsa yig'laydi? Uni yozuvchi "ichidan to'qib chiqargani"ni biladi-ku?, Odamzot nima uchun o'zga yurtlarga borib behisob mol-dunyo orttirsay-u, ittifoqo bolaligi kechgan kulbasi tushiga kirib qolsa, tuni bilan yig'lab chiqadi? Axir u shohona qasrda yashaydi-ku. Odamzot nima uchun bolasining boshida alla aytadi? Go'dak alla eshitmasa uxlamaydimi?. Odamzot nima uchun nevarasini yetaklab necha zamon avval o'tib ketgan bobosining qabrini ziyorat qiladi? Marhum ularni ko'rmaydi-ku?!. Gap shundaki, Odamzotni hayvonotdan ajratib turadigan chegara bor. Bu chegaraning nomi Ma'naviyat deb ataladi!

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. R. Mavlonova, O. To'raeva "Pedagogika", "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, T-2018.
2. Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri", Yangi asr avlodi, T-2018.
3. Kaykovus "Qobusnoma", "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, T-2018.
4. B. Abdullayeva, A. Xoliqov, D. Farsaxonova va b. "Umumiy pedagogika" "Innovatsiya-Ziyo" MCHJ matbaa bo'limi, T-2021.
5. O'. Hoshimov "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" "Yangi asr avlodi" nashriyoti, T-2018.